

# **“V International Tashkent Marathon” kengashi bo‘yicha Uzbekistan Airways marafoni**

**2023 20 Sentabr**

2023-yil 16-sentabr kuni V International Tashkent Marathon va “Yangi Nafas” yugurish musobaqasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi bayramiga bag‘ishlab, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi xodimlari 3 kilometrlik yugurish marafonida ishtirok etdi. Marafon Toshkent viloyati sog‘liqni saqlash kompleksining hududida o‘tkazildi.



Tadbir, faqat sog'liqni saqlashning noyob namunasi emas, balki muntazam harakatlarning tarkibi bo'lib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning vositasihamdir. Bundan tashqari, uni faol hayotning ahamiyatli qismi desak ham bo'ladi.



Marafondan so'ng eng yaxshi natijani Doniyor Turabekov – Boeing 757/767 havo kemasi sardori qo'lga kiritdi. U masofani 14 daqiqayu 31 soniyada bosib o'tdi, bu esa unga musobaqada g'olib bo'lish imkoniyatini berdi. Ikkinchi o'rinni Bortkuzatuvchilar xizmati xodimi Shoxruh Nurmuhammadov egalladi, natijasi 14 daqiqa 43 soniya bo'ldi. 3-o'rinni Uzbekistan Airways yoshlari yetakchisi, Xodimlar bilan ishlash boshqarmasining ijtimoiy siyosat bo'limi mutaxassisi Muxtarov Ahmadbek qo'lga kiritdi, u masofani 14 daqiqayu 44 soniyada bosib o'tdi.



Uzbekistan Airways o'z xodimlari bilan faxrlanadi va salomatlik hamda faol hayot tarzini targ'ib qiluvchi tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu marafon esa aviakompaniyada sport madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.